



**SHARQ UYG`ONISH DAVRIDA TA`LIM-TARBIYA VA
PEDAGOGIK FIKRLARNING SHAKLLANISHI**

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Rayimjonova Shohida Odinajon qiz Rayimjonova

Email:@rayimjonovaumida478@.com

Annotatsiya: ushbu tezisda sharq uyg`onish davri ta`lim tarbiya hamda pedagogik qarashlar olimlarning bu borada qilgan faoliyati, o`rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy taraqqiyat, o`rta asrlarda xalqlar madaniyatida ta`limning o`rni yoritildi.

Kalit so'zlar: ta`lim-tarbiya, pedagogika, axloqiy sifatlar, komil inson, psixologik qarashlar.

Аннотация: В данной диссертации рассматриваются образовательные и педагогические взгляды эпохи Восточного Возрождения, работы ученых в этом направлении, социально-философское развитие в Средние века, а также роль образования в культуре народов Средних веков.

Ключевые слова: воспитание, педагогика, нравственные качества, совершенный человек, психологические воззрения.

Abstract: This thesis covers the educational and pedagogical views of the Eastern Renaissance, the work of scholars in this regard, socio-philosophical development in the Middle Ages, and the role of education in the culture of peoples in the Middle Ages.



Keywords: education, pedagogy, moral qualities, perfect person, psychological views.

Sharq pedagogikasining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirish, uni jamiyatda foydali shaxsga aylantirishdan iborat edi. Bu davr mutafakkirlari ta'limni axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda olib borish lozimligini ta'kidlashgan. Ushbu maqolada Sharq uyg'onish davri pedagogik qarashlari va ta'limiy-axloqiy fikrlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni o'rganiladi. 1. Sharq uyg'onish davrida ta'lim va tarbiyaning mohiyati: Sharq uyg'onish davri ta'lim va tarbiyaning rivojida noyob davr bo'lib, inson kamolotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu davrning asosiy mohiyati shaxsni ma'naviy, aqliy va jismoniy jihatdan mukammal rivojlantirishga yo'naltirilgan tamoyillarda namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoni faqat bilim olishdan iborat bo'lmay, balki inson axloqini yuksaltirish va uni jamiyat uchun foydali shaxsga aylantirishga asoslangan edi. Asosiy tamoyillar: 1. Ilm-fanning qadri: Sharq mutafakkirlari ilm olishni insonning eng asosiy burchlaridan biri deb bilgan. Al-Farobiy ta'limni insonni baxt-saodatga olib boruvchi asosiy vosita sifatida baholagan. Bu davrda ilmdan amaliy hayotda foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. 2. Tarbiyaning axloqiy mohiyati: Axloqiy tarbiya ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rilgan. Ibn Sino ta'lim va tarbiyani shaxsning ruhiy va jismoniy rivoji bilan bog'liq jarayon deb hisoblagan. Jamiyatdagi adolat va barqarorlik ta'limning samaradorligiga bog'liq deb ko'rilg3. Tafakkur va mustaqil fikrlash Sharq uyg'onish davrida ta'lim inson tafakkurini o'stirishga, uni mustaqil fikrlashga o'rgatishga xizmat qilgan. Yosh avlodni mustaqil o'rganishga va ilmiy izlanishga jalb qilish asosiy vazifalardan biri edi. 4. Ta'limning universalligi Sharq pedagogikasida ta'lim diniy va dunyoviy bilimlarni o'z ichiga olgan. Bu holat yosh avlodning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan edi.



Sharq uygʻonish jarayoni IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom etdi. Sharq Uygʻonish da rida taʼlim tarbiya Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uygʻonish davri xalifalikning Bagʻdod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan. Xalifalik yemirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi. Sharq Uygʻonish davrida taʼlim tarbiya juda rivojlangan. Maʼlum qabila, elat, millat miqyosidagi taʼlim-tarbiya qoidalari majmuasi kontseptsiyalarida koʻp hollarda alohida kishilar tomonidan

takomillashtirilgan. Shuning uchun ham taʼlim kontseptsiyalarida maʼlum muallifning nomi bilan bogʻlanmaydi. Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhitga oʻzaro ongli munosabatlarda, axloqiy munosabatlar majmuasi boʻlgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu vaqtlarda tarbiyaning bosh maqsadi ham yoshlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish boʻlgan. Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik maʼnaviy - axloqiy sifatlar bilan uygʻun rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashhur «Avesto» (er.av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (er.av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga k e lib Oʻrta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasi boʻyicha saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan. Buning izohi 610 yillarda yaratilgan Islom dinining muqaddas kitobi «Qurʼoni Karim»da inson mohiyati toʻla oʻrganildi komilik erishish inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qoʻyilgan edi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) taʼlim-tarbiyaga bagʻishlangan “Fozil odamlar shahri”, “Ilmlarning kelib chiqishi” asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga eʼtibor berish zarurligi, taʼlim bilan tarbiya birligi haqida qimmatli fikrlar bildiradi. Forobiy taʼlim va tarbiyaga birinchi marta



ta'rif bergan allomadir: «Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida, nazariy bilim berish, tarbiya berish degani esa insoniy fazilatlarni, ma'lum xunarni eki kasbni egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor-normalarini o'rgatishdir».SHarqning ulkan qomusiy olimi, jahon ilmi va pedagogik fikrlarining eng mashhur namoyondalaridan Abu Ali ibn Sino ta'lim – tarbiya masalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi pedagogik – psixologik qarashlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini xayratda qoldiradi.Ibn Sino “Risolat at-tayr” (“Qush”), “Xayy ibn YAqzon”, (“Uyg'oq o'g'li tirik”), “Donishnoma” kabi asarlarida o'zining pedagogik va psixologik qarashlarini ifodalaydi. Masalan, u “Hayy ibn YAqzon” asarida yoshlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi: “... bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib beringlar”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pahlavon, A. (2010). Sharqning Buyuk Pedagoglari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
2. Omonov, T. (2013). Sharq Uyg'onishi va Ta'lim Tarixi. Toshkent: Akademik nashr.
- 3.Axmedov. M.O`zbekiston tarixi manbalari(qadiimgi zamon va o`rta asrlar). O`quv qo`llanma.T.O`qituvchi-2001y.
4. Murodov, M. (2015). Sharq Uyg'onishida Ta'lim va Axloq. Tashkent: Ma'rifat nashriyoti.

